



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYAT HOKIMLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI XALQARO JAMOAT FONDI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**



**"ALISHER NAVOIY ILMIY-ADABIY MEROSINING UMUMBASHARIYAT
MA'NAVIY VA MA'RIFIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI"**

mavzusidagi V xalqaro ilmiy konferensiya

M A T E R I A L L A R I



**"THE ROLE OF ALISHER NAVOI'S SCIENTIFIC AND LITERARY
HERITAGE IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT
OF HUMANITY"**

M A T E R I A L S

of the V international scientific conference on the theme

III-IV
SHU'BA

Navoiy shahri, 2025-yil, 17-18-oktyabr





UO'K: 821.512.133.09-1(092)(08)

KBK: 83.3(50')

A 49

V XALQARO ILMIY KONFERENSIYANING TASHKILIY QO'MITASI

N.Tursunov	Navoiy viloyat hokimi
K.Sharipov	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Q.Sanaqulov	NKMK bosh direktori
B.Abdusalimov	O'zR FA vitse-prezidenti
N.Mahmudov	O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori
Sh.Sirojiddinov	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori
O.Davlatov	Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi direktori
M.Kalonov	Navoiy davlat universiteti rektori
J.Xodjayev	Navoiy viloyat hokimi o'rinbosari
M.Asadov	O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o'rinbosari
S.Xo'jjiyev	NavDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

To'plovchi:

Zarif QUVONOV

TAHRIR HAY'ATI:

Bahrom ABDUHALIMOV (O'zbekiston), Abdurahmon GO'ZAL (Turkiya), Shuhrat SIROJIDDINOV (O'zbekiston), Nizomiddin MAHMUDOV (O'zbekiston), Muhiddin KALONOV (O'zbekiston), Jabbor ESHONQULOV (O'zbekiston), Muslihiddin MUHIDDINOV (O'zbekiston), Gulchehra RIXSIYEVA (O'zbekiston), Badriddin MAQSUDOV (Tojikiston), Nurboy JABBOROV (O'zbekiston), Vohid TURK (Turkiya), Ahmet AKALIN (Eron), Ali Kumail QAZALBASH (Pokiston), Ibrohim XUDOYOR (Eron), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Boqijon TO'XLIYEV (O'zbekiston), Olim DAVLATOV (O'zbekiston), Yashar QOSIM (Ozarbayjon), Maqsud ASADOV (O'zbekiston) Abdulxamid XOLMURODOV (O'zbekiston), Botir ZARIPOV (O'zbekiston)

Alisher Navoiyning bezavol ijodiy merosi misolida adabiyotimiz, madaniyatimiz va milliy qadriyatlarimizni atroflicha o'rganish hamda keng ommalashtirish muhim ahamiyatga molikdir. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining umumbashariyat ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plamidan o'rin olgan maqolalar ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qiladi. Umidimiz shuki, mazkur to'plamda bayon etilgan fikr-qarashlar navoiyshunoslik rivojida alohida o'ringa ega bo'ladi.

ISBN 978-9910-8664-0-1

© "Murruvatli-dil press", 2025



QIT'A POETIKASIDA RAQAM

Sofiya JUMAYEVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
sofiyakodirovna@gmail.com
(O'zbekiston)



ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning qit'alarida qo'llanilgan raqamlar, ularning ramziy ma'nolari, shoir qarashlari va hayotiy xulosalarini ifoda etishdagi o'rni kabilar tadqiq etilgan. Shuningdek, raqamlardan foydalanish jarayonida ta'did san'atiga murojaat va shoirning badiiy mahorati masalalari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *raqam, qit'a, badiiy mahorat, bir, uch, yetti, to'qqiz, ming, ehson, ta'did san'ati.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье исследуются числа, используемые Алишером Навои их символика, а также их роль в выражении взглядов поэта и жизненных выводов. Также в процессе использования чисел рассматриваются вопросы искусства тадида и художественного мастерства поэта.

Ключевые слова: число, китъа, художественное мастерство, один, три, семь, девять, тысяча, пожертвование, искусство таъдид.

ABSTRACT

This article explores the numerals used by Alisher Navoi and their symbolism, as well as their role in expressing the poet's views and life conclusions. Also, in the process of using numbers, the issues of Tadid's art and the poet's artistic skill are considered.



Keywords: *number, artistic skill, one, three, seven, nine, thousand, donation, ta’did art.*

Kirish. Alisher Navoiy Sharq adabiyoti an’analarini puxtalik bilan egallagan va o’z asarlarida san’atkorlik namunalarini ko’rsatib, ulardan mohirona foydalana olgan ijodkordir. Agar shoir asarlarida qo’llanilgan birgina raqamlar tilga kiritilsa, o’quvchi ko’z o’ngida yangicha ma’no olami ochiladi. Navoiy har bir raqam va uning mohiyatini yoritib ekan, masalaga nafaqat shoir, balki o’z davrining yirik tasavvufshunos olimi va tarixchisi sifatida ham yondashadi. Bu holat, raqamli birikmalarning shoir g’azallarida takror-takror kelishi, raqamlar bilan bog’liq an’ana va odatlarga ishora qilingan o’rinlarda yaqqol ko’zga tashlanadi. Shoir lirikasida uchraydigan raqamlarning ba’zilari xalq tarixiga aloqador bo’lsa, ayrim raqamli birikmalar bevosita diniy va tasavvufiy qarashlar bilan bog’liqdir.

Asosiy qism. Alisher Navoiyning raqamlarga munosabati u yaratgan lirik janrlarning barchasida ko’zga tashlanadi. Jumladan, shoir she’riyatidan o’rin olgan qit’alarda ham raqamlar mohiyatiga urg’u berish, raqamlar vositasida hayotiy xulosalarini, fikrlarini ifoda etish holatlari mavjud. Xususan, “G’azalda uch kishi tavridur ul nav’...”, “Uch kishidin uch ish yomon ko’rinur...”, “Navoiy she’ri to’qquz bayt-u...”, “Ey Navoiy, so’z ila oncha guhar sochtingkim...”, “Tuzlukka moyil o’lki...” deb boshlanuvchi qit’alarida raqamlar mohiyatiga e’tibor qaratilganligini ko’rish mumkin.

Natijalar va muhokama. Sharq adabiyotida g’azalning baytlar soni uch baytdan o’n to’qqiz baytgacha bo’lishi qayd etilgan bo’lsa-da, ko’pchilik ijodkorlar besh va yetti baytli g’azallarni ma’qul ko’rishgan. Navoiy lirikasi “to’qqiz bayt, o’n bir bayt, o’n uch bayt”li g’azallardan tashkil topgan va bunda albatta, shakl va mazmun birligiga e’tibor qaratilgan. Bu xususta Navoiy bir qit’asida bayon etadi:

*Navoiy she’ri to’qquz bayt-u, o’n bir bayt-u, o’n uch bayt,
Ki lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.*

Bukim albatta yetti baytdin o’ksuk emas, ya’ni

Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin [3: 694].

Shoir she’riyati, to’g’rirog’i, g’azallarining hajmiga oid bo’lgan ma’lumotlarni aks ettirgan ushbu qit’ada “yetti gardun” jumlasini orqali Navoiy ijodida yetti baytli g’azallar miqdori ko’p ekanligi ramzi sifatida qo’llanilgan. Shu bilan birga, she’rlari orasida yetti baytli g’azallar ham borligini e’tirof etgan shoir bunday g’azallarni yuksakligi va yetukligi jihatidan yetti gardunga qiyos qiladi. Bunda yetti raqamining kosmogonik mohiyati shoir maqsadini ifoda etishda juda o’ng’ay keladi.



To'g'rilik va rostgo'ylik singari fazilatlar hamda ularning targ'ibi Alisher Navoiy asarlaridagi asosiy masalalardan biridir. "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda bir qator hikoyatlar orqali to'g'rilikning inson ma'naviy olamidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib bergan shoir lirik asarlarida ham shu fazilatlarini ulug'laydi, to'g'rilik va rostgo'ylik targ'ibiga keng o'rin ajratadi.

*Tuzlukka moyil o'lki, ishing borg'ay ilgari,
Yuz mushkul o'lsa yo'qsa ming o'llingda har zamon.
Yuz sahfa bir qalam bila kotib qilur raqam,
Ming qo'yni bir aso bila har yon surar shubon [3: 683].*

Ushbu qit'ada ilgari surilgan g'oya xususida fikr bildirar ekan, ustoz Ibrohim Haqqul shunday yozadi: "Qiziq, kotib bir qalam bilan yuzlab sahifalarni to'ldiradi. Nega? Cho'ponning qo'lida birgina tayoq, shu bilan u minglab qo'ylarni boshqaradi. Nega shunday? Biz buning sababini xayolga ham keltirmaganmiz. Holbuki, qalam singari cho'pon tayog'ining kuchi ham to'g'rilikda ekan. Shuning uchun kotibga qalam, cho'ponga tayog'i qadrlil" [4:169]. Shoir insonning asosiy fazilati sanalgan to'g'rilik haqidagi ushbu qarashlarini raqamlarni "tilga kiritish" orqali ifoda etmoqda: qarshingda har zamonda yuzta emas, mingta mushkul ish chiqsa ham, to'g'ri so'zla; qalam bitta, ammo u yuzlab sahifalarni yozishga qodir, sababi aniq – u to'g'ri; cho'ponning tayog'i ham bitta bo'lgani holda minglab qo'ylarni boshqaradi, buning sababi ham tayoqning to'g'riligida. To'g'rilik haqidagi ushbu fikrni raqamlar harakatga keltirayotgandek go'yo. Chunki yuz yoki ming, bir va yuz, bir va ming raqamlarini bir-biriga zidlash orqali fikrni ta'sirchan ifodalashga erishgan.

Navoiy qit'alaridan biriga "Hukamo qavlining tarjimai" sarlavhasini qo'yadi va insonlar tabiatidagi eng yomon xususiyatlar haqida o'z qarashlarini bayon etadi. Podshohlarda g'azabkorlik, saxovat ahlida xasislik, donolarda esa mol-u dunyoga rag'bat bog'lashni eng xunuk va "yomon ish" sifatida e'tirof etar ekan, o'z fikrini uch raqamiga tayangan holda ifodalaydi:

*Uch kishidin uch ish yomon ko'rinur,
Sanga arz aylay ahli dunyodin:
Shohdin – tundlig', g'anidin – buxl,
Molg'a mayl-u hirs – donodin [3: 685].*

Shohlardagi shijoat va jasurlikni olqishlagan, ularni odil va adolatparvar bo'lishga undagan shoir begunoh kishilar boshiga og'ir kunlar tushishiga sababchi bo'ladigan podshohlarga xos bo'lgan o'jarlik va g'azabkorlikni qoralaydi. Saxiylik va qo'li ochiqlik, sadaqa va ehson haqidagi qarashlarni qayta-qayta ifoda etadi. Alloh taolo sadaqa qilgan kishining ehsonini yetti



boshqoq chiqaradigan va har bir boshog’ida yuzta doni bo’ladigan bug’doyga qiyoslagan. Ya’ni, bir sadaqaning savobi yetti yuztagacha ko’payishi mumkin. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da “Dehqonki, tuzluk bila dona sochar, Haq biriga yetti yuz eshigin ochar” [4: 475], – deganida ham ana shu diniy haqiqatni nazarda tutgan edi.

Xoliq o’lg’on saxiydin elga bo’ldi ikki baxshoyish,

Ham ehsonidin oroyish, ham axloqidin osoyish [2: 743], –

deydi shoir fardlaridin birida. O’z asarlarida mol-dunyoga rag’bat bog’lamaydigan, o’tkinchi dunyo ho-yu havaslari bilan yashashni o’zining asl maqsadi emasligini anglagan bir qator obrazlar yaratadi. Shunisi e’tiborliki, shoir ko’p o’rinlarda bu haqiqatlarni raqamlar vositasida berishga intiladi. Shu bilan birga yuksak san’atkorlik namunalari ham namoyon etadi. Xuroson ahli orasidan vafo ko’tarilgach, yuz ochgan axloqiy tanazzulni ta’kidlashga xizmat qildirilgan uch raqami orqali Alisher Navoiy ta’did san’atning go’zal namunasini yaratgan:

Vafo azm aylarda bo’lmish magar

Saxovu muruvvat anga hamsafar.

Bu uch fe’l chiqqach aroding tamom,

Yana bo’lmish uch fe’l qoyimmaqom.

Vafo yerida zohir o’lmish nifoq,

Saxo o’rnida buxl tutmish visoq.

Muruvvatqa bo’lmish hasad joygir,

Zihe xush elu mulkati dilpazir [1: 699].

“Bu san’at kompozitsiyasidagi ikkinchi komponent sanashdir. Sanash ham turli ko’rinishlarga ega. Agar unda sonlar ishtirok etsa, ular asosan, sanoqvat tartib sonlar bo’ladi. Ba’zan sanash sonlarsiz, faqat ohang yordamida amalga oshadiki, shunga ko’ra, “sanash” so’zini tor ma’noda tushunmaslik kerak. Mana shu sanash ohangi – intonatsiyasi umumlashtiruvchi son yoki so’zdan anglashilgan miqdorning reallashishiga yordam beradi” [6: 419]. Alisher Navoiyning yuqoridagi baytlarida umumlashtiruvchi so’z orqali anglashilayotgan “uch fe’l” alohida-alohida sanalmagan, ammo sanash ohangi orqali ifoda etilgan (vafo o’rnini nifoq, saxovat o’rnini baxillik, muruvvat o’rnini hasad egalladi). Naqshbandiylikning xilvat dar anjuman, safar dar vatan, nazar dar qadam, hush dar dam singari g’oyalari aks ettirilgan qit’adan olingan quyidagi parcha ham bunga yorqin misol bo’la oladi:



*Desang xilvatim anjuman bo'lmasun,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.*

*Vatan ichra sokin bo'lub soyir o'l,
Safardin agar bo'lsa mehnat sanga.*

*Nazarni qadamdin yiroq solmag'il,
Bu yo'l azmi gar bo'lsa rag'bat sanga.*

*Damingdin yiroq tutmag'il hushni,
Ki yuzlanmagay har dam ofat sanga.*

*Bu to'rt ish bila rub'i maskun aro,
Chalinmoq ne tong ko'si davlat sanga [1:708-709].*

Xulosa. Demak, Alisher Navoiy nafaqat g'azal, balki lirikaning boshqa janrlariga mansub asarlarida ham raqamlar mohiyatiga urg'u berish, raqamlar vositasida lirik kechinma va his-tuyg'ularni tasvirlash, hayotiy xulosalari va fikrlarini ifoda etishga e'tibor qaratgan. Shoir qit'alarida bir, ikki, uch, yetti, to'qqiz, yuz, ming singari raqamlar vositasida hayotiy haqiqatlar ifoda etilganligini kuzatish mumkin.

Raqamlarga aloqador bunday ifodalar shoirning foniy olamga munosabati boshqa ijodkorlarning qarashlaridan farq qilganini, dunyo mezonlarini belgilashda ham o'ziga xoslikka intilganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 804 b.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 812 b.
3. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 3-jild. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 792 b.
4. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 704 b.
5. Иброҳим Ҳаққул. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2021. – 288 б.
6. Исҳоқов М. ва бошқалар. Ўлмас обидалар. – Тошкент: Фан, 1989. – 444 б.



IV SHU'BA

NAVOIY IJODIYOTI TADQIQI: FANLARARO MUNOSABAT VA ZAMONAVIY TALQIN

Ahmet AKALIN (Eron) – Ekonomik ish birliqi tashkiloti geografiasinin ortak kulturel mirasinda Ali Shir Nevai.....	266
Faridaxon KARIMOVA (O'zbekiston) – Debochalardagi she'riy parchalarda shoirning poetik mahorati.....	275
Iqboloy ADIZOVA (O'zbekiston) – Navoiy g'azallarida badiiy ma'no va peyzaj uyg'unligi.....	283
Vahob RAHMONOV (O'zbekiston) – Mantiq va matnshunoslik.....	291
Azimidin NASIROV (O'zbekiston) – Navoiyning "Mahbub ul- qulub" asarida falsafiy qarashlar talqini.....	297
Sofiya JUMAYEVA (O'zbekiston) – Qit'a poetikasida raqam.....	302
Gulchehra BOLTAYEVA (O'zbekiston) – "Farhod va Shirin" dostonini o'rganishda innovatsion yondashuv.....	307
Munira XUDOYOROVA (O'zbekiston) – "Munshaot" va Muhokamat ul-lug'atayn" asarlarida qit'a janrining o'rni.....	314
Zulayho ABDURAHMON (O'zbekiston) – "Sittayi zaruriya" da ma'naviy valodat masalasi.....	321
Ozoda TOJIBOYEVA (O'zbekiston) – Sulaymoniya kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar" matni xususida.....	326
Gulshan RAHIM (O'zbekiston) – Navoiy toshbosma devoni kotiblari. Shohmurod kotib.....	336
Elnura QURBONOVA (O'zbekiston) – Navoiy g'azallarida oshiq obrazi: talqin va mahorat.....	343
Barno ISAKOVA (Qirg'iz Respublikasi) – Alisher Navoiyning "Arba'in" asari: tarixi, tarjima jarayoni va ilmiy ahamiyati.....	350
Sitora SHOMURODOVA (O'zbekiston) – "Tuhfat us-salotin" majmuasi haqida ayrim mulohazalar.....	356
Dilrabo QOZOQBOYEVA (O'zbekiston) – Navoiy poetikasiga asos bo'lgan arab tilidagi manbalar.....	365
Iroda ISHONXANOVA (O'zbekiston) – Borovkovning navoiyshunoslik faoliyatiga bir nazar.....	373
Dilfuza FAYZIYEVA (O'zbekiston) – Navoiy asarlarida mifologik kultlar.....	383



Mardon RAHMATOV (O‘zbekiston) – Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘n- gil adresati.....	390
Aziza QARSHIYEVA (O‘zbekiston) – “Xazoyin ul-maoniy”da dur timsoli.....	395
Rayhon SAIDOVA (O‘zbekiston) – Alisher Navoiy ijodida she‘r-u shoirlik masalasi va uning ilmiy-badiiy talqini.....	404
Muslima XOLBOYEVA (O‘zbekiston) – Navoiy lirikasida gul obrazining badiiy talqini.....	412
Dilorom MUMINOVA (O‘zbekiston) – Navoiyning “Mezon ul-avzon” asa- rida noma janriga berilgan baho.....	418
Nodir TURSUNOV (O‘zbekiston) – Navoiy va XV asr kitobatchiligi.....	423
Aziza OMANBOYEVA (O‘zbekiston) – Alisher Navoiy ijodida zuhd maqomi talqinlari.....	430
Tuyg‘un XOLMATOV (O‘zbekiston) – Navoiy va Husayn Boyqaro.....	439